

## OGAHIYNING TARIXIY ASARLARIDAGI FONETIK O'ZGARISHLAR XUSUSIDA

**Qunduzoy Xajiboyeva**

Urganch davlat universiteti talabasi

### ANNOTATSIYA

Muhammad Rizo Ogahiy XIX asr Xorazm adabiy muhitining yetuk vakilidir. U adabiyot bilan bir qatorda tilshunoslik sohasiga ham munosib hissa qo'shgan. Lekin Ogahiy asarlari tili, xususan, uning fonetik xususiyatlari tilshunoslar tomonidan to'la tadqiq qilingan emas.

**Kalit so'zlar:** Muhammad Rizo Ogahiy, Xorazm, fonetika, tilshunoslar, tarix.

### KIRISH

Biz ushbu maqolamizda Ogahiy tarixiy asarlaridagi fonetik o'zgarishga uchragan so'zlar haqida fikr yuritimiz. Shulardan biri singarmonizmdir.

Singarmonizm so'zlarning moslashuvi, ohangdorligi, uyg'unligi demakdir. Singarmonizm hodisasi faqat turkiy tillardagina uchraydi. Uning ikki turi mavjud: birinchisi – tanglay garmoniyasi, ikkinchisi – lab garmoniyasi. Ogahiyning tarixiy asarlarida singarmonizmning har ikki turiga misollar uchraydi. Misol:

*...har kishikim baxtiyorlig` va iqboli madadkorlig` qilib qal`a devorig`a burun chiqsa, xazinani omiradin ming tillo boyroq olsun.* (Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy. V jild. – Toshkent, 58-bet)<sup>1</sup>

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ushbu misoldagi *boyroq* so'zi Xorazm shevalariga xos so'z bo'lib, mukofot ma'nosini ifodalagan. Ushbu so'z singarmonizmning tanglay garmoniyasiga misol bo'ladi. Tanglay garmoniyasi qonuniga binoan so'zning boshida til oldi unlisi kelsa, so'z o'rtasi va oxirida ham til oldi unlisi keladi. So'z boshida til orqa unlisi kelsa, keying bo'g'inlarda ham til orqa unlisi keladi. *Boyroq* so'zida til orqa unilari ishtirok etgan. Bunday misollarni Ogahiy ijodidan ko'plab keltirish mumkin:

*... Xorazm ulusi orosida ham hamul navro`z shoe` va mashhurdurur erdi.* (V jild, 66-bet)

<sup>1</sup> Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy. V jild. – Toshkent, 58-bet. Olingan misollar shu manbadan olinib, bundan keyin jildi va sahifasi qavs ichida beriladi.

Ogahiy tarixiy asarlarida *labial garmoniyaga* ham misollar ko`plab uchraydi:

*Ko`runmay shijoatda vaqti masof,  
Alar ko`zig`a zarracha Ko`hi Qof*

(V jild, 21-bet)

*...bir to`pa ustida yo`l ma`rifatining nishonasi uchun lashkarig`a o`tun yig`natib,  
o`tundin bir baland minora hay`atin barno qildilarkim, oni avom orasida uyuk  
derlar. (V jild, 48-bet)*

*... Har tarafdin birov-birovg`a miltig` otib, ishqob hay`at nayzalar havola qilib,  
tomosha uchun urush havoyidin o`yun suratida izhor qildilar. (V jild, 49-bet)*

Nutq tovushlari qator kelganda, ba`zan bir-biriga ta`sir qilib, biri ikkinchisini o`ziga moslashtiradi. Nutqdagi bunday hodisa assimilatsiya deyiladi. Ogahiy tarixiy asarlarida assimilatsiya hodisasiga ham ko`plab misollar uchraydi. Misollar:

*To`ldi bori kent-u dasht-u sahr  
Yetti unidin falakka g`avg`o.*

( V jild,22-bet).

*... Ul nashoati fasodangizning itoat va ijodi, balki vujudi odami himmati saodat  
tavomimiz ollida barobardurur.*

*Bu bahodirlarning sarsari xamolotidin otashi savosh noyirayi talosh ishtiol topib  
marakayi kamolni tanur misol qizittilar. ( V jild, 56-bet).*

Ogahiy ijodida tovush orttirilishi, tovush tushishi hodisasi ham ko`plab uchraydi.

So`z boshida, o`rtasida va oxirida ikki undosh qator kelganda, ular orasida “i”, ba`zan “u” va “a” unlisi orttiriladi. So`z o`rtasida tovush orttirilishi *epinteza* deyiladi. O`rganilayotgan asar tilida so`z o`rtasida tovush orttirilishiga ko`plab misollarni keltirishimiz mumkin:

*... Emdi taraddud umurida tasoxul joyiz, tutmoq va maqosid xusumida manoxul  
ko`rguzmak aql ravishidin yiroq va xushmand kishidin uzoqdurur. (V jild, 72-bet)*

*... Summu sutur g`uboridin yog`du kunda shabi tiyra zulmatin oshkor ... qildilar*

*... Har tariq bila o`zgarin daryog`a yetkurib, fano girdobiga g`ariq bo`ldilar. (V  
jild, 74-bet)*

So`z oxirida tovush orttirilishi – *epitezaga* ham asar tilidan misollarni keltirish mumkin.

*... Ko`garchinli tavobe`ida daryo qirg`og`ida borgohi sipehr ishtibohni  
barpoy kildirub, nuzul emdi. (V jild, 65-bet)*

Tovush tushish hodisasi ham yuz beradi. Ayniqsa, soʻz oʻrtasida tovush tushishiga koʻplab misollar uchraydi.

... *Mashhad shahrining Hisori bagʻoyet hasin va ulusi kofiri bedindurur va osonligʻ bila uni fath qilmoqligʻ yoʻqdurur.* (V jild, 32-bet)

... *Buznurd qoʻrgʻonining Najafalixonning inisi Mehrobbekkim, aqosining ixtilofi bila dahri buqalamun inqilobidin necha vaqtlar mulki diyor, xesh-u gʻaboridin oyrilib mehnat vodiysining sargardoni va ishrat majlisining bazlagardoni erdi.* (V jild, 54-bet)

*Havosi dilgudozu yeli jonsoʻz,  
Ikisi ham samuloso jahonsoʻz.*

(V jild, 23-bet)

Soʻz oxirida tovush tushishi ham uchraydi:

*Puli xotun xisht va qir va gajdin taʻmir topgʻon bir purmatin va mustahkam koʻprukdururkim, Tajan daryosining togʻ orasidin chiqib dalit, fazoilgʻa jori boʻlgʻon yerda voqeʻdurur.* (V jild, 52-bet)

Oʻrganilayotgan asar tilidan tovush almashinishiga ham misollar keltirish mumkin:

*Erur togʻ domain, daryo qirogʻi,  
Farahafzo kelib boshdin ayogʻi.*

(V jild, 53-bet)

... *Onda suv mururi uchun besh ulugʻ raboq va besh kichik ravoq tuzatmishlar, tokim ul daryoning soʻyi ul ravoqlardin jori boʻlur.* (V jild, 52-bet)

Ogahiy ijodida baʻzi soʻzlarda *geminatsiya* hodisasi ham roʻy bergan.

*Geminatsiya* soʻzlarning oʻrtasida bir xil undosh tovushlarning qoʻshaloq holda kelishidir. Masalan, qarri, ajji, battar kabi. Ogahiyda ham bu holat kuzatiladi:

*Qarrilar holiga boq lutfing koʻzidin ey yigit,  
Kim, kamoli husn ojizlar duosidin sango.*

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Ogahiy ijodida ana shunga oʻxshagan tovush oʻzgarishlariga uchragan soʻzlar koʻpchilikni tashkil qilib, ayni paytda, ular Xorazm shevalarida ham faol ishlatiladi.

## REFERENCES

1. Ўразбоев А. Огаҳийнинг тарихий асарлари лексикаси. – Тошкент, 2013.
2. Огаҳий. Асарлар. V жилд . – Тошкент, 1978.
3. Огаҳий. Асарлар. VI жилд. – Тошкент, 1980.
4. Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. –399 бет.